



ESSEDA S.AHMADNING O'Z QARASHLARINI “DALILLASH”GA INTILISH VA YANGI HAYOTIY FAKTLARNI TAQDIM QILISH USULI.

Lapasova Go'zal Unarboy qizi

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim
nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

gozallapasova88gmail.com

+998933032896

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Said Ahmadning esse-xotiralari isbotli, hujjatli bir dalil ashyo sifatida yozilgan voqelarga boyligi, undan yozuvchilar kechmishini, o'tgan asrning mudhish voqelarini, tarixning qora kunlarini o'zimiz bilgan, asarlarini sevib o'qigan adiblarimiz hayoti, ijodi orqali ta'sirli aks ettirilgani yoritib berilgan. Essenavisning aynan shu masalani yorita olganligi ularning mahoratini belgilashi, ijodkorning esselarida davr ruhi, zamon kayfiyati, insonlarning ijtimoiy ahvoli sezilishi bilan birga qimmatli adabiy ma'lumotlarga boyligi ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR. “Oybek, “Navoiy” romani, X.To'xtaboyev, “Oltiariq hangomalari”

“Tuzilishi erkin, rang-barang mavzu va masalalarga qaratilgan shaxsiy mulohaza va qarashlarni ifodalovchi asar esse hisoblanadi. Esseda muallif, munaqqid o'z shaxsiy qarashlarini dalillashga intiladi, ba'zan o'zidan boshqa hech kimga ma'lum bo'lmagan hayotiy ma'lumotlar bilan o'rtoqlashadi”¹. Essedan adabiyotshunoslik qonun-qoidalariga to'la-to'kis rioya qilish, dalillar ilmiy jihatdan har

¹ O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi: darslik/B. Nazarov [va boshq.]; mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Karimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. —B. 409.



tomonlama isbotlangan bo'lishi talab qilinmaydi. Yanada aniqrog'i, bu xislat esse tabiatining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Said Ahmad "Topganlarim va yo'qotganlarim" kitobining "Yo'qotganlarim" bobida ustoz Oybekning xotirasini juda ajoyib tarzda chizadi. Albatta, dastavval bu ish oson kechmadi, go'yoki, Alisher Navoiy "Xamsa" yozishga kirishishdan oldin qancha qiynalgan, ustozlari bosib o'tgan yo'lni u ham munosib shogird bo'lib uddalay olamanmi degan tahvish bilan boshlagan bo'lsa, xuddi shu holatni yozuvchi Said Ahmad ham boshidan kechirdi, lekin ustoz Oybek haqida yozmasa bo'lmasdi, unga shu hayol baribir tinchlik bermasdi. Uni o'zi bu haqida shunday deydi: – "Ustoz Oybek haqida bilganlarimni yozmoqchiman. Ammo har gal jazm qilganimda jur'atsizlik qo'limni qaytaradi. Buyuk odamlar haqida gap aytish, balki, osondir, qog'ozga tushirish esa nihoyatda qiyin. Aytilgan gap o'sha joyda qolib ketishi mumkin. Qog'ozga tushgani tarix mulkiga aylanadi. Ana shuning uchun ham jur'atsizlik ko'pincha xohishdan ustun keladi. Shunday holni hatto bobomiz buyuk Navoiy ham boshidan kechirgan. U "Xamsa"ning bag'ishlov qismida shunday yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq.

Oybek "Navoiy" romanining birinchi satrlarini yozayotganda qanday holga tushgan, buni bilmayman. Shuni bilamanki, Navoiy dahosining salobati, qudrati, buyukligi oldida Oybekdek mumtoz yozuvchida ham qo'rquv, jur'atsizlik bo'lgan. Endi men Oybek dahosi oldida "borsa gumon" yo'l boshida hayron turibman. Umuman, Oybek to'g'risida biron nima yozishga haddim sig'adimi? Navoiy Nizomiy dahosidan, Oybek, Navoiy qudratidan istihola qilgan bo'lsa, endi men Oybekning buyukligi qarshisida dovdarayabman"².

"Hayotning ming bir chig'irig'idan omon o'tgan, tuhmatlarga, malomatlarga bir er kishi bo'lib chidagan, sog'lig'ini dushmanlari yillar bo'yi

² Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o'yalar. –B. 10.



yemirgan bir sabr-bardoshli o'g'lon to'g'risida “ustozlarning ruhi madakor bo'lsin, deb yozishga jur'at qildim”. Haqiqatdan, bu jur'at, bu jazm zoye ketmadi, minglab kitobxonlar, o'quvchilar qalbidan chuqur joy egalladi, sababi, adib ustoz Oybek xarakterini-yu, uning murakkab taqdir hayotini to'la- to'kis o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandira oldi.

Said Ahmad ikkinchi jahon urushi yillarida Oybekning “Navoiy” romani yozilishi jarayonini shunday xotirlaydi: – “O'sha paytlarda Oybek ozib, ko'zlari kirtayib qolgandi. Shundoq bo'lsa-da, u ishlab charchamasdi. U “Navoiy”ni tugataman-u, urush to'g'risida zudlik bilan yangi roman boshlayman, deb diliga tugib qo'ygandi. Unda boshqa yozuvchilarda uchramaydigan bir odat bor edi. Biron asar ustida ishlayotgan paytda boshqa yana bir asarni pishitib borardi. “Qutlug' qon”ni yozayotganda “Navoiy” romani ham yetilib qolgan, endi u “Navoiy”ni tugatayotganda urush mavzusidagi romanni ko'nglida pishitardi”³. Nihoyat, urush olovi chaqnab turgan bir paytda romanga nuqta qo'yiladi. O'sha yillari Said Ahmad Bekobod shahridagi Farhod qurilishida muxbir bo'lib ishlar, oyda bir Toshkentga kelib “Qizil O'zbekiston” tahririyatiga hisob berardi. Bir gal kelganida yangi shahardagi kitob do'konida odamlarning navbatda turganlarini ko'rib hayron bo'ladi. Odamlar non, kerosinga navbatda turishardi. Nechukki, ular kitob do'konida navbatda turishadi? Yaqin kelib surishtirsa, Oybekning “Navoiy” romani sotilayotgan ekan. Navbatda turib bittasini sotib oladi. Varaqlab ko'radi. Besh yuz yigirma besh sahifa. Unga marhum Hamid Olimjon muharrirlik qilgan ekan. Nomi qora ramkaga olingan. Demak, u o'zi muharrirlik qilgan bu kitobni ko'rolmagan. Hamid Olimjon shu yili bahorda halok bo'lgan edi. Darhaqiqat, Adib Said Ahmad ta'kidlaganlaridek, u she'riyatda ham, nasrda ham, adabiyot ilmida ham, tarjimada ham yetuk alloma! Oybek lirikasi hali adabiyotshunoslikda to'la kashf etilgan emas. Bu soha — ulkan bir xazina. Bizda tom ma'nodagi realistik intellektual poeziya Oybekdan boshlangan. Uning lirikasi

³ Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o'ylar. –B.11.



sirtidan tinch, bosiq-vazmin, ammo unda fikrlar, tuyg'ular gupurib, qulf urib yotadi. Oybek lirikasini to'la tushunish, uning bag'ridagi fikr, his-hayajonni chuqur uqib yetish uchun muayyan ma'noda muallifning darajasiga ko'tarilish kerak. Oybek avvalo prozaik, romannavis sifatida o'zbek adabiyotini bir qadam olg'a siljitgan san'atkor. Qisqasi, Abdulla Qahhor aytganiday, Oybekning qirq yillik ijodiy faoliyati to'rt yuz yilga teng keladigan faoliyatdir. Ayniqsa, yozuvchining romanlari unga juda katta shuhrat keltirdi. Romanlari kitobxonlar qo'lida qo'lma-qo'l bo'lib sevib o'qila boshlandi.

S.Ahmad ijodkorlar ko'rsatgan jasoratlari to'g'risidagi tafsilotlarini yana O'tkir Hoshimov misolida ko'rsatib o'tgan. Qur'oni Karimning o'zbekcha tarjima qilinishi O'tkir Hoshimovning sa'y-harakatlari hisobiga amalga oshganligi to'g'risida Said Ahmad qarashlari yozilgan.

O'zbek adabiyotining obro'sini oshishiga sababchi bo'lgan durdona asarlar sirasiga Said Ahmad esseda Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlarini kirgizadi. Bu ijodkorning bolalar adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasini S.Ahmad o'zining bolalik xotiralariga solishtirgan holda o'z fikrlarini bayon etadi. Bu yerda S.Ahmad o'zining bolalik paytlari og'ir o'tganligini, bu davrdagi bolalarga bag'ishlab yozilgan asarlarida sof bolalik tuyg'ulari aks ettirilganini bayon qilgan. S.Ahmad X.To'xtaboyevning badiiy mahorati haqida, uning bolalar olamini yaxshi bilganligini, bolalar psixologiyasini, o'y-xayollarini, favqulodda ifodalarga boy biyron tilini, qiliqlarini sinchkovlik bilan kuzatganligi haqidagi qarashlarini X.To'xtaboyevning asarlaridan misollar keltirgan tasvirlab bergan. S.Ahmad esseda X.To'xtaboyevning yozgan asarlari jahon bolalar adabiyotining yetuk namoyandalariga mansub bo'lgan nodir asarlari qatorida turganligi to'g'risida ham to'xtalib o'tgan. Bugungi kunda Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyotining zabardast vakiliga aylangan. Mamlakatimizdagi jamiki kitobsevar bolalar u kishini yaxshi bilishadi. Kitoblarini qo'ldan qo'ymay o'qiydi.



Adabiyotning, to'g'rirog'i, yozuvchining eng buyuk vazifasi o'z xalqini boshqa xalqlarga kashf qilib berish. Albatta, bu ishni bajarishda yozuchi o'z ona tilini mukammal bilishi kerak. Ular yaratgan asarlarda xalqining bor tarovati sezilib turishi lozim. T.Murod ana o'shanday ijodkor ekanligini S.Ahmad o'zining xotiralar kitobida ko'rsatib bergan. Unda T.Murodning o'z tilini mukammal bilishi aytiladi. Asarlarida badiiy mahorat tasvirining chiroyliligi haqida ham gap ketadi.

Umuman, esseda tilga olingan barcha ijodkorlarni vatanparvar ijodkorlar desak bo'ladi. Chunki barchasining ijodi yurtga bo'lgan sevgi, cheksiz hurmat, sadoqat tuyg'ulari bilan qorishilgan. Bu esa o'zbek adabiyoti badiyatining naqadar keng va jozibali ekanligini bildiribgina qolmay, yozuvchi bilan birga o'zbek adabiyotining ham ulkan zafari ekanligini ko'rsak bo'ladi. Ana o'shanday ijod qilayotganlardan Murod Muhammad Do'stni "Jomdan chiqqan yozuvchi" deb atab, uning asarlaridagi tasvirlarni yozgan.

S.Ahmad xotiralar kitobida Anvar Obidjon asarlaridan Farg'ona vodiysining so'lim tabiati aks ettirilganligini, o'zi tug'ilgan tuman nomini "Oltiariq hangomalari" deb badiiy asar nomiga aylantirgani haqida ham yozib qoldirgan. Hamda Buxorolik tilga boy, tilning ranglarini-yu, ohanglarini juda yaxshi his qiladigan va uni nihoyatda mahorat bilan ifodalaydigan yozuvchi Ne'mat Aminovning adabiyotimizga Buxoroning serma'no va quvnoq, shu bilan birga juda erka tilini olib kirganligi haqidagi o'zining qarashlarini bayon qilgan.

Said Ahmad ustozlaridan tortib, do'sti-u shogirdlarigacha yozgan esse-xotiralarida, yani G'afur G'ulomdan tortib Xudoyberdi To'xtaboyevgacha ijodkorlar dovruq'i unga sabab bo'lgan ish faoliyatini belgilovchi mumtoz ijod va hayot yo'llari, go'zal saviyaga ega asarlari, bugun ham o'zining kuchini yo'qotmagan nutqlari esse-xotirada qahramonlarning ijodiy jasorati deb belgilanadi. Said Ahmad esse qahramoni bilan bog'liq tafsilotlarini u bilan ilk tanishgan kundan boshlaydi. Ungacha bo'lgan hayotini esseda yoritmaydi. So'ng o'sha ilk tanishuv kundan boshlab Said Ahmad ko'nglida nima bo'lsa, barchasini



batafsil, badiiy bo'rttirgan holda hikoya qiladi. Said Ahmad esselarida qahramoni bilan o'zini kechinmalarini teng olib boradi. Uning esselarida o'zi ham bosh qahramon darajasiga ko'tarilib qolgan joylar uchraydi.

Misol qilib, G'.G'ulomga atab yozganlaridagi har bir voqeada Said Ahmad G'.G'ulom yonida turadi, o'zi ham qahramonining hayotida muhim o'rin tutganini bildirib qo'yadi. Aynan shu holat Saida Zunnunovaga atalgan xotira-esselarda haqiqiy aksini topgan. Chunki ularning yo'llari ham ishqiy-o'ylari, ijodiy zahmatlari hammasi bir-biriga bog'liqdir. Ana shunday holatlarda esse muallifi Saida Zunnunova yonida Said Ahmad doim uchrashi, muallifni bosh qahramon darajasiga ko'taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 Karimov N. Oybek. [Toshkent](#): G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. 220 b.
- 2 Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. [Toshkent](#): "[Universitet](#)". 1999.
- 3 O'tkir Hoshimov. Ajdahoga duch kelgan adib. Toshkent: 2003. 185 b.
- 4 Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. [Toshkent](#): G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
- 5 Saidnosirova Z. Oybegim mening. T: Sharq, 1994. 190 b.
- 6 Sanjar Sodiq. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. [Toshkent](#): "[Universitet](#)", 1996.
- 7 Suvonova Rohila. "Yo'qotganlarim va topganlarim"dagi esse janri xususiyatlari. "Said Ahmad ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati va zamonaviy o'zbek adabiyoti" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami. 2020-yil 22-iyun.
- 8 Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. –Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o'ylar. – 352 b